

**HARBIY XIZMATCHILARDA OTISH TAYYORGARLIK BO‘YICHA
KASBIY KOMPETENTLIKNI TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT-
KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI**

**РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В
СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ
В СТРЕЛКОВОЙ ПОДГОТОВКЕ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ**

**THE ROLE OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN
IMPROVING PROFESSIONAL COMPETENCE IN SHOOTING TRAINING
OF MILITARY PERSONNEL**

*Isakov Sanjar Hazratqulovich
pedagogika fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent*

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy-harbiy ta‘lim muassasalari bo‘lajak ofitserlarining o‘q otish tayyorgarligi bo‘yicha kasbiy kompetentligini takomillashtirish hamda axborot-kommunikatsion texnologiyalar bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan zamonaviy elektron trenajyorlar turlari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Qurolli Kuchlar, oliy harbiy ta‘lim muassasalari, bo‘lajak ofitserlar, zamonaviy elektron trenajyorlar, axborot-kommunikatsion texnologiyalar, kasbiy kompetentlik, takomillashtirish.

Аннотация: В данной статье речь шла о совершенствовании профессиональной компетентности будущих офицеров высших военных учебных заведений по огневой подготовке, а также о современных видах электронных тренажеров, непосредственно связанных с информационно коммуникационными технологиями.

Ключевые слова: Вооруженные Силы, высшие военные учебные заведения, будущие офицеры, современные электронные тренажеры, информационно-коммуникационные технологии, профессиональная компетентность, совершенствование.

Annotation: This article focused on improving the professional competence of future officers of higher military educational institutions in fire training, as well as on modern types of electronic simulators directly related to information and communication technologies.

Keywords: Armed Forces, higher military educational institutions, future officers, modern electronic simulators, information and communication technologies, professional competence, improvement.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Sh.Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 29 yilligi munosabati bilan Vatanhimoyachilariga bayram tabrigida, “Bugun dunyoning olis va yaqin mintaqalarida murakkab mojaro va to‘qnashuvlar davom etayotgan bir paytda jonajon O‘zbekistonimizda tinchlik va xavfsizlikni ta‘minlash borasidagi ishlarimizni yanada samarali tashkil etishimiz shart. Xususan mudofaa qobiliyatimizni mustahkamlash, qo‘shinlarni zamonaviy qurol-yarog‘ bilan ta‘minlash, bo‘linmalarni boshqarish va axborot texnologiyalarini keng qo‘llash, jangovar tayyorgarlik va kasbiy mahoratini oshirish – bundan keyin ham ustuvor vazifalarimiz bo‘lib qoladi”[1] degan so‘zlari, Qurolli Kuchlarimizning yuksalishiga e‘tibor nechog‘li muhim ahamiyat kasb etishidan dalolat beradi. Mustaqillik yillarida zamonaviy talablar asosida harbiy ta‘lim sifatini oshirish, jumladan oliy harbiy ta‘lim muassasalari harbiylarining yuqori professional qobiliyati va malakasini ta‘minlash, ularning intellektual saviyasini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan ofitser kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirish va rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratildi. Harbiy ta‘lim sohasida amalga oshirilgan keng qamrovli islohatlar natijasida, oliy harbiy ta‘lim muassasalarining huquqiy-normativ, ilmiy-metodik va moddiy-texnik ta‘minoti mustahkamlandi, oliy harbiy ta‘lim muassasalari mutaxassisliklarining Davlat ta‘lim standartlari ishlab chiqildi, o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari tadbiiq qilindi. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Sh.Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 29 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga bayram tabrigida, mudofaa qobiliyatimizni mustahkamlashda axborot texnologiyalarini keng qo‘llashga alohida urg‘u berib o‘tganlari bejizga emas. Ayni vaqtda, oliy harbiy ta‘lim muassasalari bo‘lajak ofitserlari kasbiy kompetentligini axborot-kommunikatsion texnologiyalari orqali takomillashtirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Bu borada, Prezidentimizning 2017-yil 30-iyun kunidagi PF-5099-sonli “Respublikada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida, axborot texnologiyalarining rivojlanishi, amaliyotdagi ahvoli va ularni iqtisodiyot sohaslariga joriy etishning hozirgi holati, shuningdek, mahalliy dasturiy mahsulotlarning eksport darajasi hali ham pastligicha qolayotganligi, axborot texnologiyalarining raqobatdosh va yuqori unumdorlikka ega tarmog‘ini shakllantirish uchun mamlakatning fan va ta‘lim sohasidagi salohiyatidan yetarli darajada foydalanilmayotganligi alohida ta‘kidlab o‘tilgan[2].

Oliy harbiy ta‘lim muassasalarida bo‘lajak ofitserlar axborot kommunikatsion texnologiyalari va telekommunikatsiyalar sohasidagi integrallashgan bilimlarga, global axborot oqimini bemalol yo‘naltirishga, kerakli ma‘lumotlarni mohirona topish

va qayta ishlashga, soʻngra ular asosida qarorlar qabul qilib, professional faoliyatda mukammal darajada foydalanish koʻnikmalariga ega boʻlishlari lozim.

Shuningdek, Prezidentimizning 2018- yil 19-fevral kunidagi 5349-sonli “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmonida, mamlakatimizda zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarini koʻrsatishning yaxlit tizimini yaratish, davlat organlarining aholi bilan muloqot qilishining yangi mexanizmlarini joriy etish yuzasidan izchil ish olib borilayotganligini, shu bilan birga, axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini boshqarishni joriy etish sohasidagi bir qator tizimli muammo va kamchiliklar ushbu sohaning jadal rivojlanishiga, sifatli axborot xizmatlarini koʻrsatishga toʻsqinlik qilayotganligini[3] – alohida eʼtirof etgan.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qoʻmondoni Sh.M.Mirziyoyevning “Oʻzbekiston ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida, zamonaviy kadrlar, yuksak texnologiyalar borasida dunyo miqiyosida raqobatbardosh boʻlishi shart”[4], degan daʼvatlari asosida: professional asosdagi armiyani shakllantirish, uning tarkibini yuqori malakali, kasbiy mahorat va jangovar qobiliyatga ega boʻlgan, oʻz individual – shaxsiy ijtimoiy xususiyatlari bilan harbiy kasb talablariga toʻliq javob bera oladigan professional kadrlar bilan taʼminlash masalasiga jiddiy eʼtibor qaratilmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʼlim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi oliy taʼlim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, taʼlim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini taʼminlash asosida taʼlim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida, shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi PQ-4391-son “Oliy va oʻrta maxsus taʼlim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan, konsepsiyada

“Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va taʼlim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini taʼminlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qoʻshimcha sharoitlar yaratish”[5] – lozimligi taʼkidlangan.

Oliy harbiy taʼlim muassasalarida bugungi kunning talablariga toʻliq javob bera oladigan intellektual salohiyatli, jumladan, axborotkommunikatsion texnologiyalar bilan bevosita bogʻliq boʻlgan elektron trenajyorlar va ularning imkoniyatlaridan unumli foydalana oladigan kadrlarning kasbiy kompetentligini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish, ayni vaqtda echimini kutayotgan muammolardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazishda yangi innovatsion texnologiyalarni qo'llash hamda ulardan samarali foydalanish zamonaviy o'qitishning asosiy talablaridan biri bo'lib qolmoqda. Zamonaviy harbiy ta'lim tizimining asosini sifatli va yuqori texnologiyalarga asoslangan muhit tashkil etadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida ta'lim mazmunini takomillashganlik darajasi bu kabi talablarga javob bera oladigan mutaxassisni tarbiyalashning muhim shartlaridan biridir. Axborotlashgan jamiyatda ta'lim mazmuni deganda, egallanishi talab etiladigan ilmiy bilimlar, amaliy ko'nikma va malakalar, shuningdek, keng dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgan ta'limiy g'oyalar tizimi tushuniladi. D.M.Gritskov, P.V.Sisoyev va M.N.Yevstigneev kabi mualliflar guruhi pedagogning axborot-kommunikatsiya texnologiyalarga oid kompetentligi "yangi axborot texnologiyalarini o'zlashtirish, ularni ta'lim jarayonida qo'llash imkoniyatlarini tushunish, keng tarqalayotgan axborotga nisbatan tanqidiy fikrlashdir"[6] – deb ta'rif beradi.

Ta'lim jarayonida multimediya texnologiyalari va kompyuter grafikasidan foydalanish mashg'ulot jarayonini interfaol shaklda olib borishga yordam beradi. Xususan, Macromedia Flash MX dasturi ta'lim, ishlab chiqarish va texnik jarayonlarni loyihalash, sinovdan o'tkazish, modellashtirish maqsadida foydalaniladi. Macromedia Flash MX dasturidan foydalangan holda interfaol animatsiyalar yaratib, Oliy harbiy ta'lim muassasalari o'quv jarayoniga muntazam tadbqiq qilib borish maqsadga muvofiqdir. Bu esa harbiy ta'lim tizimini tubdan o'zgartiradi va bo'lajak ofitserlar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarning mazmun-mohiyatini chuqurroq anglab yetishlariga zamin yaratadi[7].

Rossiya Federatsiyasi bo'yicha Xalqaro amaliy o'q otish konfederatsiyasi (IPSC) direktori V.A.Kryuchinning fikricha, lazerli o'q otish trenajyorlari o'q-dori ishlatmasdan, avtomatlar va turli qurollardan o'q otish texnikasini mashq qilish uchun qulay va samarali, bu esa mashg'ulot jarayoni samaradorligining 50-80% ini tashkil qiladi degan fikrlari ham bejiz emas.

Yuqoridagi fikrlarning tasdig'i sifatida hozirgi kunda dunyo hamjamiyatida e'tirof etilayotgan zamonaviy o'q otish trenajyorlarining ayrimlari haqida ma'lumotlar berib o'tishni lozim deb topdik. Jumladan, SCATT o'q otish trenajyori, trenajyor bilan ishlash uchun o'rnatadi, u doimo yuqori aniqlik bilan qurolning nishoniga nisbatan harakatini nazorat qiladi. Sensordan olingan ma'lumot SCATT dasturi tomonidan o'zgartirilgan kompyuterga kiradi va maqsad fonida yo'naltirilgan nuqta harakatning traektoriyasi sifatida namoyish etiladi. Ekranda otish vaqti yumaloq shaklda qayd etiladi va mo'ljalga olish hamda o'q uzish kordinatalari haqidagi barcha ma'lumotlar keyinchalik tahlil qilish uchun kompyuter xotirasida saqlanadi.

LAZERLI RUBEJ o‘q otish trenajyori, rubej tiridagi trenajyorlar lazer yordamida otuvchiga to‘g‘ri mo‘ljalga olish, nishonni kuzatish va ko‘rsatish, otish natijalariga tuzatishlar kiritishga imkon beradi.

STRELLES modeli o‘q otish trenajyori, o‘q otish mahoratini oshirishga va quyidagi mashqlarni bajarishga, turli pozitsiyalarda otish (yotgan holda, tizzadan, tik turgan holatda)ni mashq qildirishga mo‘ljallangan.

RUBIN o‘q otish trenajyori, otishni o‘rganish pozitsiyasini o‘zgartirib, joyidan ham dinamikadan ham otish imkonini beradi, shuningdek, bir vaqtning o‘zida bir nechta tinglovchilarni tayyorlash hamda natijalarini monitoringda aks ettirish va natijasi haqida tovushli ma‘lumotlar beradi. O‘q otishning umumiy natijasini avtomatik tarzda hisoblash uchun imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, o‘q otish trenajyorida amaliy o‘q otish texnikasi va qoidalari o‘q otar qurollardan otishda xavfsizlik qoidalariga rioya etishni o‘rgatishga ham imkon beradi. Jangovar qurollardan o‘q otishga o‘rgatish, o‘q-dorilarni behuda sarflamasdan va jarohat olish xavfining oldini olish borasidagi maqsadlarni amalga oshirishda elektron trenajyorlar eng samarali usul hisoblanib, ushbu mashg‘ulotning turlari, shartlari bajarilishi tartibi haqiqiy jangovar sharoitlarga yaqin. Elektron trenajyorlarda o‘rganuvchilarga qurolni qanday tartibda ushlab, aniq mo‘ljalga olishda nimalarga hisobga olish, mashq bajarishda diqqat e‘tibor jamlanishi birinchi o‘rinda bo‘lishi kerakligini o‘rgatishga imkon beradi hamda o‘q otish maydonida to‘liq harakatlanish erkinligini beradi.

Yuqorida keltirilgan, zamonaviy elektron o‘q otish trenajyorlari Oliy harbiy ta‘lim muassasalarining bo‘ljak ofitserlariga quyidagi imkoniyatlarni yaratadi: vazifalarni bajarishda hal etishda ta‘lim senariylarini real tasavvur qilishiga; ta‘lim oluvchilarning xatti-harakatlarini nazorat qilish vaqtida diagnostika o‘tkazish; ta‘lim oluvchilar tomonidan bajarilgan topshiriqning haqiqiy natijalarini ko‘rish; ilgari simulyatsiya qilingan vaziyatlarni qayta takrorlash; ta‘lim oluvchilar bajargan mashqlarni tahlil qilib borish, kelgusida o‘tkaziladigan mashg‘ulotlardan oldin tahlil natijalari hamda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni sarhisob qilishda yordam beradi.

Otish tayyorgarligini rivojlantirish tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari hamda rivojlantirish yo‘llari ko‘rib chiqilganida, oliy harbiy ta‘lim muassasalari tinglovchi va kursantlarini o‘qitish jarayonida bunday tizimlardan keng miqiyosda foydalanish jangovar to‘qnashuvlarning taktik va texnik elementlarini, yanada samarali o‘zlashtirishga imkon beradi degan xulosaga kelishimiz mumkin. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan elektron trenajyorlarning asosiy yo‘nalishlari ushbu sohaning rivojlanish istiqbollari bilan bevosita bog‘liqdir.

O‘q otar qurollardan otishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi evolyutsion o‘zgarishlar, rivojlanib borayotgan jamiyatning barcha sohalarini

takomillashtirishga xizmat qiladi. Bu o'z navbatida ma'lum darajada bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish usullari va vositalarini aniqlaydi. Oddiy qurollardan o'q otishni o'rganishdagi eng samarali echimlar, o'quv jarayoniga yangi elektron o'q otish trenajyorlarini kiritishni o'z ichiga oladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, oliy harbiy ta'lim muassasalarining tinglovchi va kursantlarida ponaramali kompyuterlashtirilgan o'q otish trenajyorlariga katta qiziqish uyg'otadi, binobarin, o'q otish trenajyorlarida mustaqil ishlash turli darajadagi o'q otish bo'yicha tinglovchi va kursantlarining natijalarini sezilarli darajada yaxshilaydi va barqarorlashtiradi. O'q otishning barcha turlarida jangovar operatsiyalarini bajarishda ham, o'quv jarayonida ham amalga oshiriladigan natijalar bevosita axloqiy-ruhiy holatga bog'liq. Elektron o'q otish trenajyorlari va komplekslarning eng muhim va shubhasiz afzalliklaridan biri bu otuvchining psixologik barqarorligini boshqarish uchun ularda ko'nikma hosil qilishdir.

Ponaramali kompyuterlashtirilgan o'q otish trenajyorlaridan foydalanish tajribasi bizga otishni o'rgatish elementlari psixofiziologik va texnik tayyorgarlikning ajralmas qismi ekanligini bildiribgina qolmay, o'rganuvchilarning chidamliligi, reaksiya va mushak tizimiga extiyotkorlik kabi o'ziga xos fazilatlarni rivojlantirishga ham yordam beradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari otish jarayonida yo'l qo'yilgan xatolarni baholashga yordam beradi va jarayonni qayta takrorlash hamda xotirada zarur vosita ko'nikmalarini rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.

So'ngi 20 yil ichida elektron texnologiyalar bozorida turli xil elektron shakldagi o'q otish trenajyorlari va komplekslar turlari paydo bo'ldi, ularni shartli ravishda turli xil elektron nishonlar tizimlari va ular uchun mo'ljallangan sensorlarga ajratish mumkin, jumladan, 2D va 3D tasvirlarni proektsiyalash tizimlari, ushbu texnologiyalar bizga o'z navbatida vaziyatni uch ko'rinishda tasvirlashga imkon yaratadi. Kelajak tirlari deb nomlangan 3D qurilmalari o'rganuvchiga real jang tasvirini ko'z oldida namoyon etadi, misol tariqasida, terroristlar bilan olib borilayotgan to'qnashuv jarayoni hamda asir olinganlarni terroristlar qo'lidan ozod qilish va jinoiy guruhlarini qidirish mashqlarini bajarishda, o'q otar qurollarning ovozlari orqali reallikni xis qilish imkoniyati yuzaga keladi. Ushbu tayyorgarlik mashqlari tinglovchi va kursantlarni kelajakdagi xizmat faoliyatidagi jangovar ko'nikmalarini ham takomillashtirib boradi.

Ta'lim sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish jarayoni kelajakda oliy harbiy ta'lim muassasalaridagi bo'lajak ofitserlarni tayyorlash uchun yangi talablarni belgilaydi. Oliy harbiy ta'lim muassasalaridagi bo'lajak ofitserlar, axborot texnologiyalari va telekommunikatsiyalar sohasidagi integrallashgan bilimlarga, global axborot oqimini bemalol yo'naltirishga, kerakli ma'lumotlarni mohirona topish va qayta ishlashga, so'ngra ular asosida qarorlar qabul qilib, professional faoliyatda mukammal darajada foydalanish ko'nikmalariga ega

bo'lishlari lozim. Biroq, hozirgi paytda ta'limni axborotlashtirish jarayoni tezlashishiga qaramay, kasbiy muammolarni hal qilishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarining etishmasligi bilan bog'liq bo'lgan muammolar mavjudligi barchamizni tashvishga soladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, bugungi kunning talabi va asosiy vazifalaridan kelib chiqib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini jadallik bilan ta'lim tizimiga uzluksiz joriy etish, ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish imkonini beradi. Milliy armiyamiz salohiyatini yanada oshirish harbiy ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish nafaqat oliy harbiy ta'lim, qolaversa barcha Qurolli Kuchlarimiz tarkibidagi harbiy xizmatchilarning bilimlarini takomillashtirish maqsadida o'tkaziladigan mashg'ulotlarda ham zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarning o'rnini beqiyos ahamiyat kasb etadi. Jarayonning axborotlashuvi tizim ishtirokchilari faoliyatini barcha turlarini yangi va samarali turlarga almashishga, axborot resurslaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllanishiga va natijada oliy harbiy ta'lim muassasalaribo'lajak ofitserlari ijodiy qobiliyatlarining rivojlanishiga zamin yaratadi. Shuningdek, bo'lajak ofitserlarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid kompetentligi, ularning kasbiy kompetentligining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, kelajakda axborotlashgan jamiyatda bo'lajak ofitserlarning xizmat faoliyatini kompyuter va axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu boisdan ham oliy harbiy ta'lim muassasalarida bo'lajak ofitserlarning axborot kommunikatsiya texnologiyalari kompetentligini takomillashtirish va ushbu sohaning yuksalishi kasbiy faoliyatda o'zining munosib o'rnini topishi uchun zamin yaratadi.

Fodalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari tashkil etilganligining 29 yilligi munosabati bilan Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev Vatan himoyachilariga bayram tabrigi". Milliy gvardiya gazetasi 2021-yil 15-yanvar №2(15)-soni. 8 bet/
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-iyun kunidagi PF-5099-sonli "Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni /O'.R. QHT, 2017, 26-son, 576-modda. lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevral kunidagi 5349-sonli "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni / O'.R. QHT, 2018, 0792-son. lex.uz.
4. Milliy taraqqiyot yo'limizni qa'tiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz/ Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. - 592 b.

5. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontsepsiyasi 2019 -yil 8-oktyabr.

6. Грицков Д.М., Сысоев П.В., Евстигнеев М.Н. Подготовка педагогических кадров к разработке авторских Интернет-ресурсов по иностранному языку. – Тамбов: ТГУ, 2008. – С. 33-35.

7. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi “O‘tish tayyorgarligi fanini o‘qitishda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni va roli” harbiy-ilmiy anjuman ma’ruzalar to‘plami. Toshkent – 2020. – 172 b.